

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

BOSHQARUVDA RAHBAR MA'NAVIYATI

10.53885/edinres.2022.28.63.071

A.X.Xasanov

Dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutii, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini mudiri O'zbekiston, Toshkent. xasanov_1955@bk.ru

ДУХОВНЫЕ КАЧЕСТВА РУКОВОДИТЕЛЯ

A.X.Xasanov

Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов физической культуры и спорта, доцент кафедры «Общественных дисциплин» Узбекистан, Ташкент xasanov_1955@bk.ru

SPIRITUALITY OF THE LEADER IN MANAGEMENT

A.X.Hasanov

Institute of retraining and advanced training of specialists in physical culture and sports, dotsent of " Social Sciences " Uzbekistan, Tashkent xasanov_1955@bk.ru

Annotatsiya. Rahbar shaxs ma'naviyatida mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi, rahbar bo'lgan shaxsning bu mas'uliyatga ega bo'lishi lozimligi masalalari yoritilgan.

Аннотация. Освещены ряд вопросов, которые отражают и способствуют духовной зрелости и грамотности руководителя

Annotation. Issues of high sense of responsibility in the spirituality of a noble person, the need for a leader to have a rich spirituality are covered.

Annotation. The teacher has covered such issues as determining the purpose of the lesson, making decisions, planning, organizing the course process, controlling its course and result, if necessary, changing the content..

Kalit so'zlar: manaviyat, rahbar shaxs sport, fuqarolarni rozi qilish, axborot texnologiyalar, rahbar shaxs ma'naviyati, davlat mukofotlari

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi davr rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Prezidentning har bir chiqishlarida ana shu masalalar ham o'z aksini topdi. Odamlarni rozi qilish, aholining tashvishlaridan uzoq bo'lmaslik, uning dardi bilan yashash har qaysi rahbardan o'z ishiga tanqidiy qarab, men shu talablarga javob beryapmanmi yoki yo'qmi, degan savolni o'ziga berishni, o'z mas'uliyatini oshirish, zimmasiga yuklatilgan vazifani o'z vaqtida bajarish va qonunga so'zsiz itoat qilishni taqozo etmoqda.

Rahbar ma'naviyati to'g'risida gap ketganda, ko'pincha, rahbarning tarixini, allomalarimiz merosini, go'zallik, yaxshilik - yomonlik haqidagi bilimlarini tushunishadi. Aslida bular rahbar ma'naviyatining bir bo'lagi, xolos. Zamonaviy rahbar ma'naviyati nixoyatda ko'pqirrali, tobora boyib, o'zgarib boruvchi tushunchadir. Prezidentimiz nutqlarida zamonaviy rahbar ma'naviyatida ustuvor bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar o'z aksini topgan.

Bugun zamonaviy rahbar ma'naviyati zaruriy fazilat va xislatlardan tashqari sport ta'lim muassasasida ishni tashkil qilishda izlanish, tashabbuskor bo'lish, boqimandalik, xo'jasizlik dardlarini davolash, kadrlarni tanlash, tayyorlash va joy-joyiga qo'yish, ta'magirlikka qarshi kurashish, qo'l ostida ishlayotgan xodimlarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, xotin-kizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishini va rahbarlik lavozimlariga iktidorli, talabchan va mas'uliyatli ayollar nomzodlarini tavsiya qilinishini ta'minlash, xodimlarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chikish, davlat mukofotlari va ko'krak nishonlariga tavsiya qilish hamda rag'batlantirishda gender tenglikni ta'milash hamda kasbiy yo'nalishda teng imkoniyatlar yaratilishi, ayniksa ayollar va kizlarni doimiy ravishda bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish yuzasidai yuqori tashkilotga takliflar kiritish, markazda bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan boshka to'lovlar teng to'lanishinni monitoring qilish, gender tenglikni ta'minlash madaniyatini shakllantirish maksadida sport maktabida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish kabi qo'shimcha talablarni ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Rahbar kadr davlatning insoniy timsoli demakdir. Ko'zlangan, oldimizga qo'ygan strategik vazifalarni bevosita amalga oshiruvchi shaxs - davlat vakilidir. Bu ulug' martabani egallashni xohlovchilar ko'p, lekin bu burch va huquq har bir tashkilotda faqat bir kishiga ishoniladi. Bu rahbarlikka nomzodlar orasidan eng xalolini, eng tadbirkorini, eng fidoyisini, eng mohiri, eng vatanparvarini, eng bilimlisini tanlash zarurati va muammosini paydo qiladi.

Rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalar tashkil qiladi? Prezidentning har bir chiqishlarida ana shu masalalar ham o'z aksini topdi. Odamlarni rozi qilish, aholining tashvishlaridan uzoq bo'lmaslik, uning dardi bilan yashash har qaysi rahbardan o'z ishiga tanqidiy qarab, men shu talablarga javob beryapmanmi yoki yo'qmi, degan savolni o'ziga berishni, o'z mas'uliyatini oshirish, zimmasiga yuklatilgan vazifani o'z vaqtida bajarish va qonunga so'zsiz itoat qilishni taqozo etadi...¹ Demak, rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat"² deb bilish tashkil qiladi. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining birinchi elementi insonni qadrlashdir. Bu ulkan mas'uliyat hissini paydo qiladi. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining asosiy elementini inson huquqlarini ro'yobga chiqarish tashkil etadi.

Rahbar shaxs o'z faoliyatida adolat tamoyillariga rioya qilmas ekan, uning ishlari talab darajasida bo'lmaydi. Rahbar shaxsning adolati mulkka, o'zgaralar haqqiga va jamiyat manfaatlariga nisbatan odil munosabatda bo'lishda namoyon bo'ladi. Prezident o'z nutqida nafaqat Toshkent shahrida, balki Respublikaning turli viloyatlarida bunday "rahbar"lar ko'plab uchrashini aytib o'tdi. Ular qaerdan paydo bo'lmoqda? Sabablardan biri, bunday rahbar shaxslarning suyagi Sovet totalitar tuzumida "qotgandi". Bu tuzum mulkni umumiy deb e'lon qilib, uni talon-taroj qilishga yo'l qo'ygandi. Natijada, rahbar shaxslar nopok yo'llar bilan boyish yo'llarini o'zlariga "kasb" qilib olgandi. Ular uchun adolat tuyg'usi mutlaqo begona. Nafs balosiga uchragan bundaylar istiqloq yillariga kelib ham o'tish davri murakkabliklaridan o'z manfaatlarini yo'lida foydalana boshlashdi.

Ma'lumki, Amir Temur "Kuch – adolatda" tamoyiliga asosan davlatni boshqargan va u quyidagi qoidalarga binoan boshqaruvni tashkil qilgan:

o'z davrida mavjud qadriyatlarga asoslanish, jamiyatni 12 ta ijtimoiy tabaqaga bo'lib boshqarish, har bir ishda kengashib yo'l tutish, boshqaruvda faqat qonunlarga itoat qilish, davlat xizmatchilarini rag'batlantirib borish, fuqarolarni rozi qilish, elning aziz kishilarini muhtaram tutish, shijoat bilan ish yuritish, fuqaro ahvolidan hamisha ogoh bo'lish, xizmatdagi faol kishilarni qadrlash, yaxshi kishilar xizmatini unutmazlik, qo'shinning ta'minotini talab darajasida yo'lga qo'yish³.

Bu Amir Temur boshqaruvda qo'llagan adolat tamoyillaridir. Ularning mohiyatini faqat inson manfaatlarini tashkil qiladi. Buyuk Amir Temur ta'kidlaydiki, "Davlat agar qonun-tartib asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi"⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. 2021-yil 31-dekabr
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat", 2008. 4-12-betlar.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: «O'qituvchi», 1993 yil, 182-bet.
4. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar. Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2015 yil, 37-bet.
5. AMavrulov A. Vatanni sevish mas'uliyati. T.: "Sano-standart", 2015. 67-bet.
6. Oltinov U.. Mafkuraviy targ'ibotni uslubiy takomillashtirish yo'llari. Toshkent, Mchj "Garuda". 1-bet
7. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. Ma'ruza matni. T.: Ma'naviyat, 2000. 16 b.
8. Zakurlaev A. G'oyalar kurashi. – T.: Movarounnahr, 2000. – 64 b.
9. Muhammad Quronov. Ogohlik: tarix va zamon saboqlari. Toshkent, Ma'naviyat, 2015. 40 - bet.
10. Толаметов А.А. [Спорт турлари бўйича тренер-ўқитувчиларни малакасини оширишда электрон дарсликлардан фойдаланиш](#), Academic research in educational sciences, 2021

¹ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq .Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent : O'zbekiston,

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-modda. 2017 y.

³ Temur tuzuklari. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2013. 74-78-betlar

⁴ Shu manba. 78-bet

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

74. Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).

75. Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики. - 2020- № 3 (48) с 79-81

76. Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки-2020-№9 (57) с 81-83

77. Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96

78. Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences. Vol.1 №2 February 2022

79. Джураева Махаста Зокировна "Характеристика эмоционально –волевой готовности личности к спортивной деятельности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.

80. Маъмуров Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойihalашга тайёрлашда қўлланиладиган тамойиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. <https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ituvcchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar>

81. Mamurov B. B. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596>

82. Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>

83. В Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>

84. ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147

85. Маъмуров Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472>

86. Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).

87. Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.

88. U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. <https://mbukcksig.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obshcheniya-ego-funkcii-organizaciya.html>

89. Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf